



## GIPERTROFIK RINITDA ESHITISH NAYCHASINING DISFUNSIYASINI DAVOLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Shamatov Islom Yakubovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son Otorinologiya  
kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: [islomshamatov@gmail.com](mailto:islomshamatov@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3956-7269>

Iskandarova Shaxina Xamitovna

Toshkent kimyo texnologiyalar universiteti Samarkand filiali  
o'qituvchisi

E-mail: [sohinaiskandarova@gmail.com](mailto:sohinaiskandarova@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-5586-0300>

Karshiyev Bobir Botir o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Klinik ordinatori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18314822>

### ARTICLE INFO

Received: 31<sup>st</sup> December 2025

Accepted: 11<sup>th</sup> January 2026

Published: 20<sup>th</sup> January 2026

### KEYWORDS

*eshituv nayi disfunktsiyasi, gipertrofik rinit, halqum murtaklari gipertofiyasi, eshituv nayi teshigi, ultratovushli dezintegratsiya, mikrodebitor.*

### ABSTRACT

*Gipertrofik rinit ko'pincha otorinologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan va doimiy ravishda yetakchi tadqiqotchilarning diqqat markazida. Ushbu kasallik aksariyat xollarda qulok bitishi, eshitish naychasining disfunktsiyasiga (END) olib keladi. Tadqiqot davomida pastki burun chig'onaqlarining gipertrofiyasi va eshitish naychalari patologiyasi bo'lgan 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 20 bemorning tekshirish va davolash natijasi ma'lumotlari o'rganildi. Endorinojarrohlik aralashuvi davolash usuli sifatida maxsus rinologik mikromanipulyatsion asboblari yordamida amalga oshirildi. Endoskopik usullarning samaradorligi, minimal invazivligi, burun bo'shlig'ining, burun halqumining qolgan qismlarini saqlab qolish imkoniyati borligini ko'rsatgan.*

**Dolzarbligi.** Eshitish nayi disfunktsiyasi (END, Eustachian tube dysfunction – ETD) otorinologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, doimiy ravishda yetakchi tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. END ning turli shakllari va darajalari 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning taxminan 40% ida uchraydi. Eshitish nayi bilan burun-halqumning tuzilish va funksional jihatdan yaqin bog'liqligi sababli, yuqori nafas yo'llari shilliq qavatining yallig'lanishida patogenetik o'zgarishlar zanjiri rivojlanadi, jumladan, eshitish nayining halqum og'zi sohasida ham.

Burun orqali nafas olish buzilishi natijasida nay disfunktsiyasi rivojlanadi, aksariyat hollarda faringit, sinusit, tonsillit, konduktiv eshitish pasayishi va ekssudativ o'rta quloq yallig'lanishiga olib keladi. Kasallikning rivojlangan holatlarida jarayon yopishqoq ajralmalar va chandiqli o'zgarishlar bilan kechadi.

An'anaviy otorinologik amaliyotda burun chig'anoqlari va eshitish nayining og'zi gipertrofiyasini tashxislash, ayniqsa davolash, obyektiv vizualizatsiya imkoniyati cheklanganligi sababli muayyan qiyinchiliklar tug'dirgan. Zamonaviy endoskoplar imkoniyatlarni bu sohada sezilarli darajada kengaytirdi. Endoskop yordamida eshitish nayining og'zi va burun chig'anoqlari gipertrofiyasini tashxislash va jarrohlik yo'li bilan

davolash sifati oshdi. Otorinolarolog operatsiyaning butun jarayonini monitor ekranida batafsil ko'rish mumkin bo'lib, bu natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi.

**Ishning maqsadi.** Endoskopik bir bosqichli jarrohlik amaliyoti yordamida gipertrofik rinit va eshitish nayining og'zi patologiyasini davolash samaradorligini oshirish.

**Materiallar va usullar.** 2020-2025 yillar davomida Samarqand viloyat ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi LOR bo'limida burun chig'anoqlari gipertrofiyasi va eshitish nayining og'zi patologiyasi bilan og'rigan 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 46 nafar bola davolandi. Ulardan 28 nafari (60,9%) o'g'il bolalar, 18 nafari (39,1%) qiz bolalar edi.

Barcha bemorlar 2 guruhga bo'lindi:

**Asosiy guruh** – 22 nafar bemor, ularda patologiya minimal invaziv endorinoxirurgiya usullari bilan qo'llanildi.

**Nazorat guruhi** – 24 nafar bemor, ularda an'anaviy davolash usullari (qisman konxotomiya va eshitish nayining og'zini enukleatsiya qilish) qo'llanildi.

Barcha bemorlarga O'zbekiston Respublikasi standartlariga muvofiq klinik va laborator tekshiruvlar o'tkazildi. Burun bo'shlig'i patologiyasini tashxislashning asosiy usuli videoendonozofaringoskopiya bo'ldi.

Endoskopik tashxis va davolash uchun Koreyada ishlab chiqarilgan CHANMED firmasining 0°, 30° va 70° ko'rish burchagiga ega endoskopi televizion tizim bilan qo'llanildi.

Endoskopdan tashxis bosqichida foydalanish burun shilliq qavati, burun-halqum holati haqida obyektiv ma'lumot olish, burun chig'anoqlari gipertrofiyasining shakli va hajmini aniqlash, burun yo'llarining torayish sabablarini, shuningdek, eshitish nayi disfunktsiyasiga olib keluvchi nay bodomchalarining gipertrofiyasini baholash imkonini berdi.

Endoskopik tekshiruv barcha bemorlarda o'tirgan holatda o'tkazildi. Shilliq qavat yuzasi elektr so'rg'ich yordamida shilliqdan tozalandi, so'ng pastki va o'rta burun chig'anoqlariga 1% li Adrenalin eritmasi surtili. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun 2% li Lidokain eritmasi qo'llanildi. Tekshiruv o'rtacha 3-5 daqiqa davom etdi.

Operatsiyalar reja asosida umumiy intubatsion narkoz ostida sun'iy nafas berish bilan bajarildi. Barcha bemorlarda pastki burun chig'anoqlari gipertrofiyasi eshitish nayining og'zi patologiyasi bilan birga kechib, burun orqali nafas olish va eshitish naylari funksiyasini yanada og'irlashtirgan.

**Natijalar.** Endonozofaringoskopiya yordamida burun bo'shlig'ining to'liq vizualizatsiyasiga erishildi, bu burun chig'anoqlari va eshitish nayining og'zi sohasidagi har qanday patologik o'zgarishlarni aniqlash, ularning chegaralari va hajmini baholash imkonini berdi. Shu bilan birga burun-halqum shilliq qavati va limfoid to'qimalarning holati haqida obyektiv ma'lumot olindi.

Bevosita kuzatuvlar 18 nafar (41,1%) bemorda eshitish nayining halqum og'zini mexanik berkituvchi adenoid to'qima gipertrofiyasini aniqlash imkonini berdi. 9 nafar (20,5%) bolada nay bodomchalari gipertrofiyasi kuzatildi. 4 nafar (8,8%) bemorda choanal poliplar, 3 nafar (5,8%) bemorda esa bo'lakli shakldagi angiofibroma aniqlandi.

Barcha bemorlarda eshitish nayining patologiyasi pastki burun chig'anoqlari gipertrofiyasi bilan birga kechdi, bu burun va eshitish naylari funksiyasining yanada buzilishiga olib keldi.

Eshitish nayining disfunktsiyasi 7 nafar (14,7%) bemorda I-darajali konduktiv eshitish pasayishiga, 3 nafar (5,8%) bemorda ekssudativ otit, 2 nafar (2,9%) bemorda qaytalanuvchi otit aniqlandi.

Jarrohlik taktikasi aniqlangan patologiya turiga bog'liq holda tanlandi. Asosiy guruhda pastki burun chig'anoqlari gipertrofiyasida ultratovushli dezintegratsiya bajarildi. Nay bodomchalari gipertrofiyasida mikoderbider yordamida olindi va nay teshigini kengaytirish amalga oshirildi. Adenoid gipertrofiyasida endoskopik nazorat ostida shever (mikrodebrider) bilan adenoidektomiya bajarildi. Choanal poliplar, o'spirinlar angiofibromasi olib tashlandi. Nazorat guruhida barcha jarrohliklar an'anaviy usullarda o'tkazildi.

Endoskopik nazorat ostida bajarilgan operatsiyalar yaxshi gemostazga erishish imkonini berdi, zarur hollarda koagulyator qo'llanildi. Barcha davolash holatlari muvaffaqiyatli deb baholandi, biroq asosiy guruh natijalari nazorat guruhiga nisbatan ustun bo'ldi.

**Xulosa.** Shunday qilib, endonazofaringoskopiya va endorinoxirurgiya usullaridan foydalanish gipertrofik rinit va eshitish nayi patologiyalarida samarali, minimal invaziv davolash usuli bo'lib, burun bo'shlig'i va burun-halqum tuzilmalarini maksimal darajada saqlagan holda optimal jarrohlik variantini tanlash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исламов, Ш. Э., Ураков, К. Н., & Нормухаматов, И. З. ЗАЩИТА ПРАВ ПАЦИЕНТА ПРИ ПРОВЕДЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ. *ТВЕРСКОЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ Учредители: Тверской государственный медицинский университет*,(4), 93-95.
2. Yakubovich, S. I., Eryigitovich, I. S., Takhsinovna, N. M., Negmatullaevna, M. N., & Abdumuminovna, S. Z. (2022). Morphofunctional Changes of the Adrenals at Chronic Exposure to Magnesium Chlorate. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(6), 178-185.
3. Yakubovich, S. I. (2022). Asliddinovich SS SPECIFIC DIAGNOSIS OF CHRONIC TONSILLITIS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(06), 202-204.
4. Yakubovich, S. I., & Abdumuminovna, S. Z. (2023). OTORHINOLARYNGOLOGY THROUGH THE EYES OF A FORENSIC EXPERT. *International Journal of Medical Sciences And Clinical Research*, 3(01), 29-32.
5. Хушвакова, Н. Ж., Исхакова, Ф. Ш., & Шаматов, И. Я. (2019). КОМПЛЕКСНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ОСТРЫХ ЛАРИНГИТОВ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 98.
6. Шаматов, И. Я., & Шопулотова, З. К. (2024). ОСОБЕННОСТИ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЙ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЕ ПАРАДОКСАЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ ГОЛОСОВЫХ СКЛАДОВ У ЖЕНЩИН. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 5(1), 45-49.
7. Eryigitovich, I. S., Yakubovich, S. I., Negmatullaevna, M. N., & Rustamovna, M. S. (2023). Histochemical Indicators of The Adrenal Gland Under Acute Exposure to Magnesium Chlorate. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
8. Shamatov, I., & VA, S. Z. O. U. K. (2023). MAGNIT-REZONANS ТОМОГРАФИЯНИНГ ДИАГНОСТИК ИМКОНИЯТЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2), 85-88.
9. Шаматов, И. Я., & Исхакова, Ф. Ш. (2016). РОЛЬ АУДИОМЕТРИИ В ДИАГНОСТИКЕ СЕНСОНЕВРАЛЬНОЙ ТУГОУХОСТИ. *ББК 65.26 Н 72*, 54.
10. Исламов, Ш. Э., & Шаматов, И. Я. (2005). Судебно-медицинские аспекты дефектов медицинской помощи в оториноларингологической практике. *Российская ринология*, (2), 144-145.
11. ШАМАТОВ, И., БОЛТАЕВ, А., & ШОПУЛОТОВА, З. (2023). КОМПЛЕКСНОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ РЕГИОНАРНОЙ АНТИБИОТЕРАПИИ И ФИЗИОТЕРАПИИ ПРИ ОДОНТОГЕННОМ ВОСПАЛЕНИИ ПОЛОСТИ ВЕРХНЕЧЕЛЮСТНОЙ ПАЗУХИ. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(3), 29-33.
12. Шаматов, И., Коржавов, Ш., & Курбанова, Л. (2021). Эффективность некоторых методов лечения пациентов с полипозным риносинуситом. *Журнал биомедицины и практики*, 1(3/2), 159-164.
13. Шаматов, И. Я., Исламов, Ш. Э., & Шербекоев, Б. Э. (2021). УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВОЙ ТРАВМЫ. *Вопросы науки и образования*, (13 (138)), 34-38.
14. Хушвакова, Н., Шаматов, И., Хамракулова, Н., & Усманов, Ш. (2018). Роль озонотерапии в лечении экссудативных гайморитов. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (99)), 124-126.

15. Бахронов, А. Р., Хушвакова, Н. Ж., Болтаев, А. И., & Шаматов, И. Я. (2014). Применение комбинированных антисептиков в лечении острого фарингита. *Вестник Казахского Национального медицинского университета*, (2-3), 14-15.
16. Shamatov, I. Y., Shopulotova, Z. A., Madakhanov, A. S., & Yunusova, N. B. (2023). NEEDS FOR RESORT AND HEALTH CARE AND INNOVATIVE APPROACHES TO ITS MEETING. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 1233-1238.
17. Шаматов, И. Я., Болтаев, А. И., & Расулова, М. Р. (2022). ИММУНОБИОХИМИЧЕСКИЕ СДВИГИ ПРИ СЕЗОННОЙ БИЦИЛЛИНОМЕДИКОМЕНТОЗНОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ ХРОНИЧЕСКИХ ТОНЗИЛЛИТОВ В САНАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ. In *Проблемы постковидной оториноларингологии* (pp. 284-286).
18. Шодиев, С., Шаркиев, А., Аббосов, О., Фозилова, Д., & Шаматов, И. (2016). Усовершенствование лечения альвеолитов лунок зубов. *Стоматология*, 1(2-3 (63-64)), 54-57.
19. Sabirova, M. M., Akhmedzhanov, I. A., & Shamatov, I. (1991). Errors in the diagnosis of a foreign body in the pharynx of a three-month old child. *Vestnik Otorinolaringologii*, (4), 60-60.
20. Sabirova, M. M., Rustamova, B. A., & Shamatov, I. (1991). Unusual cases of esophageal foreign bodies. *Vestnik Otorinolaringologii*, (2), 78-78.
21. Khushvakova, N., Shamatov, I., Esanov, A., Khojiev, A., & Gaybullaev, R. (2025). CHRONIC POLYPOUS RHINOSINUSITIS AND MODERN TREATMENT OF POLYPS IN THE NOSE. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(2), 43-47.
22. Boliev, I., Mukhammadieva, M., & Shamatov, I. (2025). NASAL AND THROAT DISEASES IN CHILDREN, THEIR PREVALENCE, PREVENTION AND THE IMPORTANCE OF FAMILY REHABILITATION. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 2(1), 173-178.
23. Yakubovich, S. I., Daston, G., & Babur, Q. (2024). EFFECTIVENESS OF ENDOSCOPIC ULTRASOUND DISENTIGATION IN HYPERTROPHIC RHINITIS AND ENT PATHOLOGIES. *Eurasian Journal of Academic Research*, 5(1), 45-51.
24. Yakubovich, S. I. (2024). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF COMPLEX APPLICATION OF OZONE IN CHRONIC SUPPUROUS EAR DISEASES. *Central Asian Journal of Academic Research*, 2(11-2), 38-43.

ACADEMY